
PhD Nilufar ALIQULOVA
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

YASHIL MOLİYAVIY INSTRUMENTLAR QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

Annotasiya: Yashil moliyaviy instrumentlar ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan investitsiya oqimlarini shakllantirish orqali iqtisodiyotning resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda past uglerodli loyihalarni moliyalashtirish jarayonida moliya bozori ishtirokchilarining xulq-atvoriga yangi talablar qo’yadi. Ushbu maqolada yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, iqlim moliyasi vositalari kabi instrumentlarning mohiyati chuqur tahlil qilinib, ularning qo‘llanish mexanizmlaridagi normativ-huquqiy, institutsional va amaliy jihatlarining o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, global tajriba bilan mahalliy moliya tizimi o‘rtasidagi uyg‘unlik darajasi baholanib, yashil moliya instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy rag‘batlantirish choralarining samaradorligi asoslab beriladi. Natijada, maqola yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida moliyaviy instrumentlar tutgan o‘rinni ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: yashil moliya, yashil moliyaviy instrumentlar, yashil aksiya, yashil obligatsiya, qayta tiklanadigan energiya, yashil sukuk, yashil kredit.

APPLICATION FEATURES OF GREEN FINANCIAL INSTRUMENTS

Abstract: Green financial instruments enhance the efficiency of resource utilization in the economy by channeling investment flows towards ensuring environmental sustainability and impose new requirements on the behavior of financial market participants in the process of financing low-carbon projects. This article provides an in-depth analysis of the essence of instruments such as green bonds, green loans, and climate finance tools, while highlighting the specific features of their regulatory, institutional, and practical application mechanisms. Moreover, it evaluates the alignment between global best practices and the national financial system and substantiates the effectiveness of economic incentives necessary for expanding the use of green finance instruments. Consequently, the article serves to theoretically and practically elucidate the role of financial instruments in the transition toward a green economy.

Keywords: green finance, green financial instruments, green equity, green bond, renewable energy, green sukuk, green loan.

Kirish

So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda ekologik barqarorlik masalalarining keskinlashuvi yashil moliyaviy instrumentlarning ahamiyatini sezilarli darajada oshirib, ularni iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirdi. Yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil sukuklar va boshqa ekologik yo‘naltirilgan

moliyaviy vositalar kapital oqimlarini past uglerodli ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda resurs tejankor texnologiyalarga yo'naltirish orqali iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasini jadallashtiradi. Shu bilan birga, ushbu instrumentlardan samarali foydalanish institutsional muhitning rivojlanganligi, moliyaviy bozorlarning shaffofligi va investorlarga taqdim etiladigan ma'lumotlarning ishonchliligiga bevosita bog'liq bo'lib, ular milliy iqtisodiyotlarda yangi tartib-taomillarni joriy etishni talab qiladi. Turli mamlakatlarning ilg'or tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil moliya mexanizmlarining keng joriy etilishi nafaqat ekologik xavflarni kamaytiradi, balki iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangilanishiga ham xizmat qiladi. O'zbekiston iqtisodiyotida ham so'nggi yillarda yashil loyihalarning moliyalashtirilishi bo'yicha institutsional asoslar shakllantirilmoqda, biroq bu jarayon instrumentlarning mohiyati, ularning qo'llanish mexanizmlari va mavjud cheklovlarni chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Shu tariqa, ushbu maqola yashil moliyaviy instrumentlarning nazariy asoslarini yoritish, ularning qo'llanish xususiyatlarini baholash hamda milliy iqtisodiyot sharoitida ularning samaradorligini oshirish omillarini ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilishni maqsad qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, shuningdek, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish masalalari belgilab olingan[1]. Keltirilgan muammolarni hal qilish, qo'yilgan maqsadlarga erishish moliyaviy ta'minot masalasiga bevosita bog'liq. Shu boisdan qo'llanilishi tobora kengayib borayotgan moliyalashtirishning yashil instrumentlarini faol qo'llash shart bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada yashil moliya, yashil moliyalashtirish amaliyotining mazmun-mohiyati, konseptual ahamiyati va xalqaro moliya bozori amaliyotidagi holati tahlillari bilan qiyoslash, ilmiy umumlashtirish, guruhlashtirish va istiqbolli prognozlash kabi metodlardan foydalanilgan.

Adabiyotlar sharhi

Global ekologik muamolarning yechimi sifatida yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil moliyaviy instrumentlar orqali moliyalashtirish, yashil loyihalarga investitsiya kiritish chora-tadbirlari bo'yicha amalga oshirilayotgan harakatlar bevosita o'ziga xos vaqtlararo tanlov sifatida namoyon bo'lmoqda. Jalb qilinayotgan investitsiyalar kelajakda daromad olish maqsadida hamda mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'zlab amalga oshirilmoqda. Xorij olimlaridan Muhammet Deveci, Gholamreza Haseli o'z tadqiqotlari natijasida ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun jalb qilinadigan investitsiyalar qimmatga tushishi va shoshilinch o'sish ehtiyojlari bilan cheklanishi yuz berishi mumkinligi haqida fikrlarni ilgari suradi [2].

Xorijiy olimlardan Suaad Hadi Hassan Al-Taai yashil iqtisodiyotning eng muhim maqsadlaridan biri bu yashil iqtisodiyotga to'sqinlik qiladigan va unga erishadigan siyosat va qoidalarni isloh qilish zarurati hisoblanishi bo'yicha xulosalarini keltirib o'tgan [3].

Global yashil iqtisodiyotga o'tishda moliyalashtirish jarayonini shakllantirish, samarali tashkil qilish va takomillashtirish uchun yashil instrumentlar tarkibiga kiruvchi yashil obligatsiyalar bo'yicha xorij olimlaridan Pravein Raj "yashil obligatsiyalar - bu ekologik va ijtimoiy mas'uliyatli loyihalar uchun mablag' to'plash uchun chiqarilgan doimiy daromadli qimmatli qog'ozlardir deb ta'riflagan. Yashil obligatsiyalardan tushgan mablag'lar faqat atrof-muhit yoki jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Loyihalar qayta tiklanadigan energiya loyihalaridan tortib barqaror qishloq xo'jaligi, suv resurslarini boshqarish, chiqindilarni boshqarish va arzon uy-joy va boshqalarga qadar bo'lishi mumkin"ligi haqida xulosa qilganlar [4].

L.D.Georgeson, M.Maslin va P.Martin tadqiqotlariga ko'ra yashil iqtisodiyot asoslari va amaliyotlari ekologik barqarorlikka, chiqindilarni kamaytirishga, ijtimoiy adolatga va barqaror iqtisodiyotga erishish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy qayta tashkil etish turlari bo'yicha davom etayotgan munozaralar uchun mos kelishi to'g'risida xulosaga kelishgan [5].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit dasturi ta'rifiga ko'ra yashil moliyalashtirish - bu davlat, xususiy va notijorat sektorlaridan barqaror rivojlanish ustuvorliklarigacha bo'lgan moliyaviy oqimlarni (bank, mikrokredit, sug'urta va investisiyalarni) oshirishdir. Buning asosiy qismi ekologik va ijtimoiy xavflarni samarali boshqarish, munosib daromad va atrof-muhitga foyda keltiradigan imkoniyatlardan foydalanish va katta mas'uliyatni ta'minlash deb hisoblashadi[6].

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda dunyoning barcha mamlakatlarida eng muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanib kelayotgan yashil moliyalashtirish va yashil moliyaviy instrumentlar emissiyasi ahamiyatliligi, yashil iqtisodiyotga o‘tish muhimligi va moliya bozori bilan bir qatorda ekologik ijobiy natijalarga erishish rivojlanishini jadallashtirish hisoblanib kelmoqdi. Yashil moliyaviy instrumentlar sifatida jahon moliya bozorida asosiy mahsulot sifatida yashil obligatsiyalar iqlim va ekologik muammolarni bartaraf etish uchun ishlab chiqilgan loyihalarga mablag‘ yo‘naltirishga alohida mo‘ljallangan barqaror daromadga ega moliyaviy vosita sifatida faol foydalanilmoqda. Yashil obligatsiya – bu atrof-muhit va iqlimga ijobiy hissa qo‘shadigan loyihalarni moliyalashtirish yoki qayta moliyalashtirish maqsadida tashkilot tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozi hisoblanadi. Yashil obligatsiyalar asosan an‘anaviy obligatsiyalar bilan bir xil: investor tomonidan loyihani moliyalashtirish uchun tashkilotga berilgan qarz mablag‘lari bo‘lib, investor obligatsiya muddati tugagandan so‘ng asosiy qarz miqdorini qaytarib oladi, muddat davomida foiz ko‘rinishidagi daromatlarga ega bo‘ladi. Yashil obligatsiya va an‘anaviy obligatsiya o‘rtasidagi asosiy farq bu jalb qilingan mablag‘ bilan moliyalashtiriladigan asosiy loyihadir. Yashil obligatsiyalar faqat atrof-muhitga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadigan loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladi. Boshqa tomondan, an‘anaviy obligatsiyalar birinchi navbatda umumiy loyihalarni moliyalashtirish, umumiy aylanma mablag‘lar maqsadlari yoki mavjud qarzlarni qayta moliyalashtirish uchun chiqariladi.

Yashil moliya vositalari bozori tez sur‘atlar bilan kengayib, investorlarning ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirishga qiziqishi ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil kapital, yashil mikromoliya va yashil sug‘urta mavjud va boshqa turdagi yashil instrumentlar moliya bozorining instrumentlar ko‘lamini kengaytirishga va sarmoyadorlar qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu instrumentlar orqali ko‘plab investitsiyalarni jalb qilgan holda yashil moliya bozoridagi yashil loyihalarni moliyalashtirishga kapital jalb qilishga sabab bo‘lmoqda. Yashil obligatsiyalar, sukuk va kreditlar kabi moliyaviy mahsulotlar global miqyosda investitsiya kapitalini iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, shuningdek, iqlim o‘zgarishiga chidamlilik va moslashuv loyihalariga yo‘naltirishning samarali vositasi sifatida tan olingan. Yashil moliyalashtirish vositalari ularning muqobil variantlari sifatida joriy etilgan, bundan tashqari tushumlar kam uglerodli aktivlar va loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi. Xususan, aholisi musulmon va musulmon bo‘lmagan ko‘plab mamlakatlarda

so‘nggi o‘n yilliklarda yangi moliyaviy instrument sifatida qo‘llanila boshlangan islom qimmatli qog‘ozlaridan biri – sukuk, o‘zining zamon muammolariga muvofiq bo‘ladigan yashil sukuk taqdim eta boshlagan. Birinchi yashil sukuk 2017-yil 27-iyunda Malayziya hukumati tomonidan chiqarilganligini shu o‘rinda ta’kidlashimiz lozim.

1-jadval

Yashil moliya yo‘nalishlari va ularning tavsifi

T/r	Yashil yo‘nalishlari	Yashil moliya yo‘nalishlari tavsifi
1.	Yashil budjet	Xarajatlarni tanlashning atrof-muhitga ta’sirini yaxshiroq tushunish va davlat budjetlarining iqlim va atrof-muhit maqsadlariga mos kelishini ta’minlash uchun budjet siyosatini ishlab chiqish vositalaridan foydalanish
2.	Yashil soliq	atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlash maqsadida soliq siyosatida amalga oshiriladigan o‘zgarishlar
3.	Yashil xarid (davlat xaridlari)	atrof-muhitga minimal salbiy ta’sir ko‘rsatadigan tovarlar va xizmatlarni sotib olishni anglatib, mahsulotning butun hayoti davomida atrof-muhitga ta’sirini hisobga oladi
4.	Yashil sug‘urtasi	atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishga yordam beradigan, atrof-muhitda sodir bo‘layotgan hodisalarni ekologik sug‘urta sifatida doimiy rag‘batlantirib turishda keng foydalaniladigan, ekologik xavflardan himoya qilish uchun mo‘ljallangan sug‘urta polislarini anglatadi
5.	Yashil kredit	ekologik barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun foydalaniladigan kreditlar hisoblanib an’anaviy kreditlarga o‘xshaydi, lekin ekologik barqaror xatti-harakatlarni rag‘batlantiradigan shartlar bilan birga keladi
6.	Yashil investitsiya	an’anaviy investitsiya vositalari kabi ma’lum bir turdagi loyihani amalga oshirish uchun jalb qilingan pul mablag‘i hisoblanib, atrof-muhitni yaxshilashga va qabul qilingan barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan investitsiya hisoblanadi
7.	Yashil ipoteka	kreditorlarga yuqori ekologik barqarorlik reytingiga ega bo‘lgan uy-joy sotib olish imkoniyatini berishda yoki xaridor mulkining ekologik samaradorligini oshirishga investitsiya kiritishga rozi bo‘lgan sharoitlarda maxsus shartlarni taqdim etadigan ipoteka xizmatli hisoblanadi
8.	Yashil obligatsiya	hukumatlar, korporativ tuzilmalar yoki boshqa tashkilotlar tomonidan atrof-muhit yoki iqlimga mos loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlari bo‘lib, tushgan mablag‘lar qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi, yashil binolar, barqaror qishloq xo‘jaligi va yaxshil transport kabi yashil loyihalarni moliyalashtirishga sarflanadi
9.	Yashil aksiya	xorijiy qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan barcha turdagi operatsiyalarning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan maxsus turdagi qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi
10.	Yashil sukuk	ekologik jihatdan barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqarilgan islomiy obligatsiya bo‘lib, asosan, atrof-muhitni saqlash va barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida, ekologik loyihalarni (qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, chiqindilarni boshqarish va boshqa yashil iqtisodiy faoliyatlarni) moliyalashtirishga qaratilishi maqsad qilinadi

Muallif tomonidan tuzilgan.

So‘nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish umumjahon trendi sifatida nafaqat milliy iqtisodiyot balki jahon iqtisodiyotining barqarorligini belgilab beruvchi asosiy taraqqiyot yo‘li sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu o‘rinda “2009-yil iyunda 34 ta mamlakat Yashil iqtisodiyot deklaratsiyasini imzoladi va “ham inqirozdan chiqish uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar doirasida, ham uning doirasidan tashqarida yashil o‘sinh strategiyalarini joriy etish uchun sa‘i-harakatlarni mustahkamlashini, “yashil” va “o‘sinh” tushunchalari bir-biriga chambarchas bog‘liqligini tan olishini” ma‘lum qildi” [7].

Global Landscape of Climate Finance e‘lon qilgan so‘nggi hisobotiga ko‘ra, 2019–2020-yillarda iqlim bilan bog‘liq moliyalashtirishning umumiy hajmi 632 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan. Buning 321 milliard dollari jamoatchilik manbalari hisobidan, 310 milliard dollari esa xususiy manbalar tomonidan moliyalashtirilgan. “Yashil” moliyalashtirish vositalari orqali investisiyalarni davlat ishtirokisiz amalga oshirish, mablag‘ jalb qilish, moliyaviy foyda olish va ekologik muammolarni kamaytirish imkoniyatiga erishish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi “yashil” moliyalashtirish vositalaridan “yashil” kreditlar va obligasiyalar ko‘rinishida 2021 yil iyul oyida London fond birjasiga 2,5 trillion so‘m qiymatiga ega 3 yillik muddatga davlat obligasiyalarini (SDG) joylashtirdi. Yevrobondlar AQSh dollari uchun 3,9% kupon bilan 10 yil muddatga va so‘m uchun 14% kupon bilan 3 yil muddatga chiqarildi. Bu obligasiyalar orqali olingan mablag‘lar 9 ta aniq milliy barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni ko‘zda tutuvchi tadbirlar va loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi. Asosiy qismi aynan yashil iqtisodiyotini rivojlantirishda maqsad qilib olingan rejalarni amalga oshirish uchun safarbar etilishi ko‘zda tutilgan. Xususan, butun dunyo aholisi duch kelayotgan asosiy muammolarni hal etishga qaratilgan BMT tomonidan ishlab chiqilgan 2030 yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) bo‘yicha 17 ta o‘zaro bog‘liq va ulkan maqsadlarini moliyalashtirish bo‘yicha foydalanish ko‘zda tutilgan edi. BRM maqsadlarining aksariyat qismi aynan ekologiya muammolarini bartaraf etish uchun mo‘ljallangan. BRM obligasiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar yashil loyihalarni amalga oshirishga, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, suv ta‘minoti va irrigasiya hamda jamoat transporti kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Belgilab olingan yashil loyihalarni amalga oshirishda bevosita muqobil moliyalashtirish instrumentdaridan foydalaniladi.

O‘zbekiston 2030-yilgacha bo‘lgan davrdagi BRM sohasidagi 16 ta milliy maqsadlarini belgilab oldi. Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar Yer yuzida qashshoqlikka barham berish, atrof-muhit va iqlimni himoya qilish hamda

dunyodagi barcha kishilar tinchlik va ravnaq topishdan bahramand bo'lishini ta'minlash bo'yicha global miqyosda harakat qilishga da'vat hisoblanadi.

2008-yilda Jahon banki tomonidan chiqarilgan birinchi yashil obligasiyadan boshlab, ekologik va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlovchi yashil obligasiyalarga investisiyalar jalb qilish qariyb 4 trillion dollargacha o'sdi. Ushbu o'sish sezilarli darajada bo'lsa ham, 100 trillion dollarlik boshqa turdagi barcha obligasiyalar bozorining bir qismini tashkil qiladi xolos [8].


Bugungi kunda yashil obligasiyalar milliy bozorini shakllantirish va xalqaro bozorlarga chiqish O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy amaliyot tahliliga asosan, yashil obligasiyalar va qarzlar ekologik loyihalarni moliyalashtirishning maxsus vositasi hisoblanib, obligasiyalar emitentlari va investorlarining mulkiy manfaatlarini, ham jamiyat va davlatning ekologik vaziyatni yaxshilash borasidagi vazifalarini ijobiy hal qilishga imkon beradi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini amalga oshirish chora-tadbirlariga ko'ra jalb qilingan davlat tashqi qarzlarini samarali taqsimlash va yashil loyihalarning daromadlilik stavkalarini oshirish siyosatini joriy etish amalga oshirilmoqda. Jalb qilingan tashqi qarzi 2022-yilning yanvar-sentabr oylaridagi bitimlariga muvofiq "Yashil iqtisodiyotga o'tish" loyihasi Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan 150.0 mln yevro qiymatida, 20 yillik muddatga berildi. Bu loyihani amalga oshirishda tashabbuskor ijrochi o'rnida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va Moliya vazirligi amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiyasida davlat budjeti xarajatlarini barqaror rivojlantirish maqsadida "Yashil budjet" tamoyillarini ham joriy qilish uslubiyotini ishlab chiqish choralari ko'rilishi belgilab olingan. Bunga ko'ra "Yashil budjet" – budjetdan moliyalashtirilayotgan tadbirlarning (xarajatlarning) iqlim o'zgarishiga, ekologik holatga hamda havoga chiqariladigan zararli gazlarning kamayishiga ta'siri nuqtai nazardan tasniflashdan iborat. Yevropa Ittifoqidagi 11 ta davlatga "Yashil budjet" joriy etilgan va qolgan davlatlar ham unga o'tish metodologiyasini ishlab chiqish, hodimlarini o'qitish va boshqa tayyorgarlik ishlarini boshlagan. "Yashil iqtisodiyotga o'tish" loyihasi Fransiya taraqqiyot agentligi tomonidan boshqarilishi tanlab olingani bejizga emas. Sababi Yevropa Ittifoqi davlatlari ichida Fransiya so'nggi ikki yil davomida "Yashil budjet" yo'nalishida ilg'or mamlakat hisoblanadi. "Yashil budjet" tizimini joriy qilish uchun Fransiya taraqqiyot agentligi bilan quyidagi maxsus chora-tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgan [9]:

- “Yashil budjet” metodologiyasini bosqichma-bosqich ishlab chiqish, joriy etish va bu sohada tegishli mutaxassislarni o‘qitish;
- Barqaror (yashil) davlat xaridlari standartlari va indikatorlari yuzasidan treninglar o‘tkazish, uni ishlab chiqish bo‘yicha yo‘l xaritasini shakllantirish;
- “Yashil” soliq siyosati yuzasidan mahalliy mutaxassislarga treninglar o‘tkazish hamda soliq tizimini iqlim o‘zgarishiga ta'siri yuzasidan dastlabki o‘rganishlar o‘tkazish;
- “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini joriy etishga doimiy maslahatchi ajratish orqali texnik ko‘mak ko‘rsatish.

Fransiya tajribasiga asosan budjet xarajatlarining ekologik holatga, iqlimga ta'siridan kelib chiqib, to‘q yashil rang (iqlim uchun ijobiy), och yashil rang (iqlim o‘zgarishiga ijobiy, lekin ayrim salbiy ta'siri bo‘lishi mumkin, lekin ijobiy ta'siri ustunlikka ega), kul rang (iqlimga ta'siri neytral), jigar rang (iqlimga va atrof-muhitga ta'siri salbiy) kabi ranglar bilan tasniflanadi. Ranglar orqali tasniflab olingan budjet xarajatlarini qoplash maqsadida moliyaviy instrumentlarni to‘g‘ri tanlagan holatda joriy qilish, jalb qilish orqali yashil iqtisodiyot oldiga qo‘ygan chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratish mumkin bo‘ladi. Jalb qilinadigan moliyaviy instrumentlardan eng muqobil turlari tanlab olinadi. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish nafaqat mamlakatimiz balki ko‘plab xorijiy davlatlarda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti tomonidan barcha a'zolarining uzoq muddatli rivojlanishi uchun strategik yo‘nalish sifatida qabul qilingan.

Iqlim obligasiyalari bozori (Climate Bonds Market Intelligence) ma'lumotlariga ko‘ra yashil obligasiyalar bozorining doimiy tezlashishi 2021 yilda yashil obligasiyalar bozorini yarim trilliondan biroz ko‘proq qiymatga (517,4 milliard dollar) ega bo‘ldi (3-rasm). Yillik ko‘rsatkich bozor paydo bo‘lganidan beri eng yuqori ko‘rsatkichga erishib, 10 yillik o‘sish tendensiyasini saqlab qolishga erishdi [10].



3-rasm. Yashil obligasiyalar emissiyasi (AQSh dollari, trln) [10]

Umumiy yillik yashil investisiyalar (yashil obligasiyalar, yashil kreditlar va yashil sukuk) 2020-yilda rekord darajadagi \$297 milliardga yetdi. 2021-yil 3-choragi oxirida taqvim yili uchun yashil obligasiyalar emissiyasi 354 milliard dollarni tashkil etib, o'tgan yillardagi rekorddan oshib ketdi. Bozor o'sishining tezlashishi Climate Bonds Market Intelligence kompaniyasini 2021 yil uchun prognozini yarim trillionga (500 milliard dollarga) ko'tarishga olib keldi, bu 2021 yil yanvar oyidagi prognoziga qaraganda 400-450 milliard dollarga oshganini ko'rish mumkin. 2021 yil oktyabr oyida o'tkazilgan iqlim obligasiyalari bozori so'rovnomasi natijalari ham ijobiy bo'lib, investorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan global yashil investisiyalar 2022 yil oxiriga kelib bir yilda 1 trillion dollarga yetishi mumkinligini prognoz qilishgan edi. Global ekologik muammolarni bartaraf etish uchun amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar uchun keying 2025 yilga qadar yashil obligasiyalar uchun 5 trillion miqdorda investisiya jalb qilish prognoz qilingan [11].

Yashil moliyalashtirish instrumentlari tarkibiga 2017 yildan boshlab dunyo mamlakatlari moliya bozorida yangi instrument sifatida shakllanib sezilarli darajada o'rin egallagan islom qimmatli qog'ozi yashil sukukdan foydalanish talabi ham tobora ortib bormoqda. Yashil sukuk - bu qayta tiklanadigan energiya va boshqa ekologik aktivlarga shariatga muvofiq investisiyalar kiritish imkoniyatini beruvchi moliyaviy instrument hisoblanadi.

Yashil sukuk bozori yashil obligasiyalar bozoriga qaraganda sekinroq rivojlandi va hali boshlang'ich bosqichida. Dunyodagi birinchi yashil sukuk

(RM250 million) 2017-yil iyul oyida Malayziyaning qayta tiklanadigan energiya firmasi tomonidan yirik quyosh energetikasi stansiyalari qurilishini qo'llab-quvvatlovchi tushumlar uchun emissiya qilingan. Janubi-Sharqiy Osiyodagi eng yirik quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishini moliyalashtirish uchun 2018-yil oktabr oyida alohida qayta tiklanadigan energiya firmasi tomonidan ikkinchi yashil sukuk (RM1 milliard qiymatida) chiqarildi. 2018 yil mart oyida Indoneziya o'zining birinchi suveren yashil sukuk chiqardi va 1,25 milliard dollar kapital jalb qildi [12].

2016-yilda Jahon banki Global bilim va tadqiqot markazi guruhi Markaziyaning yashil moliyalashtirish dasturini qo'llab-quvvatlash bo'yicha Malayziya Banki va Qimmatli qog'ozlar komissiyasi bilan Texnik ishchi guruhiga yashil moliyalashtirish bo'yicha bilim va tajribalaridan foydalangan holda qO'shildi. Dastur dastlab Malayziyada, keyin esa ASEAN mintaqasidagi yashil islom moliya bozorlarini rivojlantirish orqali yashil yoki barqaror loyihalarga investisiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan edi. Dastur 2017-yil 27-iyun kuni dunyodagi birinchi yashil sukukning ishga tushirilishini qo'llab-quvvatladi. Sukuk yashil islom obligatsiyasi bo'lib, undan tushgan mablag'lar qayta tiklanadigan energiyani qurish kabi muayyan ekologik barqaror infratuzilma ishlab chiqarish inshootlari loyihasini moliyalashtirishga sarflanishi belgilab olindi.

Xulosa va takliflar

Yashil moliyaviy instrumentlarning joriy etilishi ekologik barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish orqali iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga tizimli ta'sir ko'rsatadi hamda past uglerodli loyihalarni moliyalashtirishda an'anaviy moliya bozorlarining funksional rolini sezilarli darajada kengaytiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, yashil sukuklar va boshqa barqarorlikka yo'naltirilgan instrumentlar investitsiya oqimlarini qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va ekologik innovatsiyalar sohalariga yo'naltirishda eng samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda jahon bozorida yashil obligatsiyalarning emissiya hajmining keskin oshgani, ushbu instrumentning global moliya tizimida muhim investitsion yo'nalishga aylanganini ko'rsatadi, bu esa mamlakatlar uchun ekologik transformatsiyani tezlashtirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, yashil moliyani rivojlantirish milliy iqtisodiyotlarda normativ-huquqiy baza, monitoring tizimi, loyiha baholash standartlari va investorlar ishonchini mustahkamlovchi institutsional mexanizmlarning takomillashtirilishini talab etadi. O'zbekiston misolida esa, yashil moliyaviy

instrumentlarni amaliyotga joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligini ta'minlash uchun xalqaro tajribaga moslashtirilgan boshqaruv mexanizmlari, standartlashtirilgan hisobot tizimlari va rag'batlantiruvchi iqtisodiy choralar tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Demak, yashil moliya bozorining barqaror rivojlanishi ekologik, iqtisodiy va institutsional omillarning uyg'unlashuviga bog'liq bo'lib, ushbu jarayonni kompleks boshqarish mamlakatning yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasining poydevorini mustahkamlaydi. Umuman olganda, ilmiy tahlillarimiz natijasida qilingan xulosamiz: yashil moliyaviy instrumentlarning nafaqat ekologik risklarni kamaytirish, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. 2030 yilgacha O'zRning "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/5805>
2. Gholamreza H., Muhammet D., "Providing climate change resilient land-use transport projects with green finance using Z extended numbers based decision-making model" Vol: 243, 2024 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0957417423033602>
3. Suaad Hadi Hassan Al-Taai. Green economy and sustainable development. 2021 IOP Conf. Ser.: Earth Environ. https://www.researchgate.net/publication/352916345_Green_economy_and_sustainable_development
4. Pravien Raj. Green Bonds: Financing Sustainable Projects with ESG Criteria. 17 august 2023. <https://vakilsearch.com/blog/green-bonds-financing-sustainable-projects-with-esg-criteria/>
5. Lucien Georgeson, Mark Maslin and Martyn Poessinouw. The global green economy: a review of concepts, definitions, measurement methodologies and their interactions. Geo: Geography and Environment · January 2017. https://www.researchgate.net/publication/316334130_The_global_green_economy_a_review_of_concepts_definitions_measurement_methodologies_and_their_interactions
6. UNEP [Green Financing | UNEP - UN Environment Programme](#)
7. A.A.Isadjanov. "Yashil iqtisodiyot": xususiyatlari va rivojlanish omillari. // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2020. №1. – 15-bet.

8. Jahon bank rasmiy internet blog sahifasi. [Why green bonds matter - it may be more than you think \(worldbank.org\)](https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/07/29/why-green-bonds-matter-it-may-be-more-than-you-think)

9. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi “2023-2025 yillar uchun Fiskal strategiyasi” https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/2023_2025

10. Climate Bonds Initiative
<https://www.climatebonds.net/2022/01/500bn-green-issuance-2021-social-and-sustainable-acceleration-annual-green-1tn-sight-market>

11. Climate Bonds Initiative
<https://www.climatebonds.net/2022/01/500bn-green-issuance-2021-social-and-sustainable-acceleration-annual-green-1tn-sight-market>

12. Simon Thompson. Green and sustainable finance principles and practice. 2020. -p.390.